

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NORBABOYEVA MATLUBA TOXIROVNA

**YANGI O‘ZBEK NASRIDA YETIM BOLA OBRAZINING
POETIK TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Norbaboyeva Matluba Toxirovna

Yangi o‘zbek nasrida yetim bola obrazining poetik talqini 5

Norbaboeva Matluba Tokhirovna

Poetic interpretation of the image of an orphan in modern Uzbek prose..... 21

Норбабоева Матлуба Тохировна

Поэтическая интерпретация образа сироты в новой узбекской прозе..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NORBABOYEVA MATLUBA TOXIROVNA

**YANGI O‘ZBEK NASRIDA YETIM BOLA OBRAZINING
POETIK TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil2071 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ernazarova Gulnoza Xamrayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomova Gulchexra Muxammadiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Kuchkarova Marhabo Xudayberganovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Qarshi-Shahrisabz shoh ko‘chasi, A.Avloniy 15-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti faollar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G. Tojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

D. Turayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida yetim bola obrazi insoniyatning eng universal badiiy timsollaridan biri sifatida doimo alohida diqqat markazida bo‘lib kelgan. Yetim bola obrazi urush, yo‘qotish, qismat, ijtimoiy tengsizlik, zo‘ravonlik, oilaviy inqirozlar, madaniy identitetning izdan chiqishi, ruhiy jarohatlar kabi global muammolarni badiiy tahlil etishning samarali modeli sifatida qaralmoqda. Epik tafakkur doirasida yetim bola obrazining poetik talqini jahon adabiyotidagi obraz yaratishning yangilangan tamoyillarini o‘rganishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Dunyo adabiyotshunosligida yetim bolalar obrazi tasvirlangan badiiy asarlarni ilmiy o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Zero, badiiy adabiyotda yetim bola obrazini epik tafakkur tizimida tasvirlash masalasi faqat badiiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik muammo emas, umummadaniy muammo sifatida global ahamiyat kasb etmoqda. Yetim bola obrazi va yetimlik motivini tadqiq etish umumbashariy hamda ma’naviy qadriyatlarimizning mohiyatini anglash, milliy an’analarimizning tarixiy ildizini aniqlashga ko‘mak beradi. Badiiy asarlarda yetimlik motivi badiiyati, obrazlarning ruhiy-psixologik tasvirida sharqona an’analar tarannumi, shuningdek, g‘arbga xos xususiyatlarning o‘zlashtirilishi oldimizda turgan masalalardan biridir. Milliy adabiyotshunoslikda yetim bola obrazining alohida tadqiqot ishi sifatida hali tahlilga tortilmaganligi mavzuni o‘rganishning dolzarbligini izohlaydi.

Badiiy nasrimizda yetimlik mavzusi folklordan to hozirgi adabiy jarayongacha poetik talqin qilingani uning o‘zbek adabiyotshunosligida alohida tadqiq etiladigan muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Yetim bola obrazi genezisini o‘rganish, obrazning badiiyatini ochib berish, o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, yetim bola obrazining tarixiy, badiiy, ijtimoiy, biografik, psixologik omillarini aniqlash, ularni ilmiy-nazariy dalillash, yetim bola ruhiyati tasviri, yetim bola va jamiyat munosabati, yetim bolaning olamni idrok etishi kabi masalalar mazkur tadqiqot ishining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Darhaqiqat, adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 338.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish”ning ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va rus adabiyotshunosligida yetim bola obrazi muammosi V.I. Nikolayevna, S.Y. Neklyudov, O. Buxin, A. Lanu, Laurin² kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida yetimlik mavzusiga oid izchil ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Obraz masalasi I. Sul-ton, B. Sarimsoqov, T. Boboyev, A. Ulug‘ov, D. Qur-onov³ kabi olimlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan, yetim bola obraziga oid ayrim masalalar esa L. Qayumov, H. Abdusamadov, M. Qo‘shjonov, U. Normatov, I. G‘afurov, A. Rasulov, S. Meli, B. Nazarov, Q. Yo‘ldosh, M. Jo‘rayev, M. Olimov, R. Barakayev, U. Jo‘raqulov, U. Hamdam, M. Kuchkarova, Sh. Akramov, S. Babayeva, A. Qosimov, X. Ahmadjonov, R. Tulaboyeva, R. Umurzakov⁴ kabi adabiyotshunoslarning ilmiy ishlarida nazariy asoslangan. Yetim bola obrazi muammosi o‘zbek adabiyotshunosligida alohida tadqiqot doirasida o‘rganilmaganligi masalaning monografik tarzda tadqiq etilishi muhimligidan dalolat beradi. Mazkur tadqiqotimizda yangi o‘zbek nasrida

² Николаевна В.И. Тема сиротства в детской литературе // <https://infourok.ru>; Неклюдов С.Ю. Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор // <https://www.ruthenia.ru>; Бухина О. Сироты в детской литературе // <https://cyberleninka.ru>; Бухина О., Лану А. Герои-сироты в детской литературе: отражение социального кризиса начала и конца советской эпохи социальные потрясения постсоветской эпохи. Бунин, Лаурин. Исследования сиротства; Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 152.

³ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 366 б.; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: А.С.Аҳмедова босмаҳонаси, 2004. – 128 б.; Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. Эпос. – Тошкент: Фан, 1991. – 264 б.; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.; Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – 298 б.; Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.; Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.

⁴ Қаюмов Л. Аср ва наср. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 272 б.; Қаюмов Л. Биз билмаган Ҳамза // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1999. 1 октябр; Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 288 б.; Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 186 б.; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.; Фафуров И. Мангу латофат. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 458 б.; Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.; Мели С. Комик катарсис // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. – № 2. – Б. 22-28; Suvon Meli. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2019. – 226 b.; Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 528 б.; Назаров Б. Фафур Фулом олами. – Тошкент: Фан, 2004. – 156 б.; Йўлдош Қ. Очқич сўз. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – 687 б.; Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – 192 б.; Olimov M. Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. – Toshkent: Fan, 2018. – 352 b.; Баракаев Р. Бугунги болалар адабиётининг қаҳрамони. 5 жилдлик. Адабий танқид. – Тошкент: Adib, 2013. – 394 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – 362 б.; Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 123 б.; Kuchkarova M. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2020. – 280 b.; Akramov Sh.X. Istiqloq davri o‘zbek qissalarida milliy ozodlik kurashchilari obrazi talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – 48 b.; Бабаева С. Америка ва ўзбек адабиётида болаликнинг бадиий талқини (М. Твен ва F. Фулом ижоди мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 110-111; Qosimov A., Ahmadjonov X. Isajon Sul-ton ijodi adabiyotshunoslar nigohida / “Filologiya ta’limi masalalari: muammo va uning yechimlari” mavzusidagi Xalqaro-amaliy anjuman materiallari to’plami. 1-qism. – Toshkent, 2022. 11-may. – B. 185-187; Tulaboyeva R. Badiiy asarda ijtimoiy muhit va bola ruhiyati // Yoshlik. – Toshkent, 2011. 6-son. – B. 56-58; Safarova Z. G‘afur G‘ulom asarlarida yetim bola hayoti va yetimlikka munosabatning yoritilishi // Xorazm Ma’mun akademiyasi. – № 1. – Xorazm, 2022. – B. 354-356; Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. b. fals. dok. diss. – Farg‘ona, 2021. – 135 b.

yetim bola obrazining poetik takomilini talqin qilish va mavzuga oid yetakchi tamoyillarni belgilashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya o‘zbek adabiyotshunosligidagi fundamental tadqiqotlar rejalari mos tarzda Shahrizabz davlat pedagogika instituti Til va adabiyot kafedrasining “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining zamonaviy metodikasi muammolari” mavzusidagi ilmiy ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek nasrida yetim bola obrazining poetik takomilini izchil tadqiq etish, uning shakllanish jarayoni va badiiy-estetik funksiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy adabiyotda yetim bola obrazining genezisini aniqlash, yetimlik motivining islomiy tafakkur bilan bog‘liq ildizlarini tahlil qilish hamda mazkur motivning shakllanish xususiyatlarini yoritish;

yangi o‘zbek adabiyotida yetim bola obrazining ijtimoiy, psixologik, biografik, badiiy va tarixiy omillar bilan bog‘liqligini izohlash;

milliy istiqlol davri nasrida yetimlik motivi va yetimlik muammosining badiiy funksiyasini aniqlash hamda ularning poetik talqinini amalga oshirish;

modernistik va postmodernistik nasrda yetim bola obrazining badiiy talqinini o‘rganish, mazkur obrazning tasvir prinsiplari, ruhiy jarayonlari, ichki kechinmalari va konseptual mohiyatini tahlil qilib, umumlashma ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalarida, mumtoz adabiyotda, jadid adabiyotida (Hamza, A. Qodiriy, Cho‘lpon), sho‘ro davri nasrida (G‘. G‘ulom, X. To‘xtaboyev, T. Malik) hamda mustaqillikdan keyingi o‘zbek adabiyotida (L. Bo‘rixon, A. Yo‘ldosh, Q. Norqobil, T. Rustamov, Sh. Hamro, I. Sulton, N. Eshonqul, N. Norqobilov, N. Jaloliddin va boshqalar) yaratilgan asarlardagi yetim bola obrazlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti. Yetim bola obrazining genezisi, yetimlik mavzusi va motivining poetik talqini, uning adabiy-estetik omillari hamda yangi o‘zbek nasridagi badiiy ifodasini o‘rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya materiallarini yoritishda biografik, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, psixologik va germeneytik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot manbalarida yetimlik motivi islomiy tafakkur asosida shakllanganligi ilmiy dalillar bilan asoslangan;

yetim bola obrazining folklor va mumtoz adabiyot namunalaridan transformatsion usulda yangi o‘zbek nasriga o‘zlashganligi, tarixiy-an‘anaviy va realistik tasvir vositalari asosida shakllanganligi hamda ushbu obraz yuzaga kelishida ijtimoiy, psixologik va biografik omillarning o‘rni aniqlangan;

jadid nasri misolida yetim bola obrazining ijtimoiy va milliy mazmunlari tahlil qilinib, sho‘ro davri o‘zbek nasrida yetimlik mavzusi markaziy mavzulardan

biriga aylangani, yetim bola va jamiyat o'rtasidagi konflikt poetik jihatdan ochib berilgan;

zamonaviy o'zbek nasrida yetimlik motivi hamda yetim bola epizodik obraz sifatida bajaradigan badiiy funksiyalar o'rganilgan, rad etilgan yetim bola va ota obrazlari tasvirining o'ziga xosliklari, modernistik asarlarda yetim bolaning ichki olami, ruhiy evrilishlari va olamni idrok etish tizimi umumiy badiiy mohiyati bilan birga yoritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yetim bola obrazi genezisi o'rganilib, yetimlik motivining nazariy asoslari aniqlangan;

yangi o'zbek nasrida yetim bola obrazining poetik takomili ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

obrazning shakllanishiga ta'sir etuvchi tarixiy, an'anaviy, biografik, psixologik va ijtimoiy omillar belgilangan;

o'zbek nasrida modernistik va postmodernistik asarlarda yaratilgan yetim bola obrazining poetik talqini yuzasidan umumlashma xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi ilmiy xulosalardan foydalanilgani, yetim bola obrazining biografik, sotsiologik, germenevtik, psixologik, qiyosiy-tarixiy usullarda ilmiy-nazariy tadqiq etilgani, yangi poetik xususiyatlari ochib berilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalaridan yangi o'zbek nasrida yetim bola obrazini aniqlashda, adabiyot nazariyasi fanining nasr, obraz, mavzu, motiv, badiiy tasvir vositalari kabi masalalarini o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura bosqichlarida "Hozirgi adabiy jarayon", "Adabiy tanqid", "Badiiy tahlil asoslari" kabi kurslarni o'qitishda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, shuningdek, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda tadqiqot natijalaridan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi o'zbek nasrida yetim bola obrazining poetik talqini mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi ishlarda joriylangan:

xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot manbalarida yetimlik motivi islomiy tafakkur asosida shakllanganiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 "Bolalar adabiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" davlat innovatsion granti loyihasida foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 17-mart №01/4-987-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnni o'qib tushunish, uning mazmunini anglash va yozma nutq bilan bog'liq muammolarning amaliy yechimini topishda qimmatli ma'lumotlar berishga erishildi;

yangi o'zbek nasrida folklor va mumtoz adabiyotdan transformatsiya jarayonlari mavjudligi, yetim bola obrazining tarixiy-an'anaviy va realistik tasvir vositalari asosida shakllangani, ushbu obraz yuzaga kelishida ijtimoiy,

psixologik va biografik omillarning o'rne aniqlanganligiga doir natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida PF-201912258-raqamli 2021-2024 yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil, 17-mart № 01/4-988-sonli ma'lumotnoma). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi umumlashma xulosalar bilan boyigan;

yangi o'zbek nasri misolida yetim bola obrazining ijtimoiy va milliy mazmunlari ochib berilgani, sho'ro davri o'zbek nasrida yetimlik mavzusi markaziy mavzulardan biriga aylangani, yetim bola va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar poetik jihatdan ochib berilganligi hamda yetim bola epizodik obraz sifatida bajaradigan badiiy funksiyalar, rad etilgan yetim bola va ota obrazlari tasvirining o'ziga xosliklari, yetim bolaning ichki olami, ruhiy evrilishlari va olamni idrok etish tizimi yoritilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali tomonidan e'fira uzatiladigan "Birgalikda o'qiymiz" ko'rsatuvining "Shum bola" asari tahliliga bag'ishlangan sonini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali davlat muassasasining 12.04.2023-yildagi, 01-02-03/91-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning milliy adabiyotimizda yetim bola obrazi poetik talqinida bola ruhiyatiga xos yangicha qarashlari boyitilgan;

xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotga oid manbalarda yetimlik motivi hamda yetim bola obrazining poetik ifodasida islomiy tafakkur ta'siri ilmiy dalillangani; yangi o'zbek nasrida yetim bola obrazining badiiy tasvirida folklor va mumtoz adabiyot manbalaridan transformatsiya mezonlari kuzatilgani; sho'ro nasrida yetim bola obrazi va jamiyat o'rtasidagi konfliktning ilmiy-nazariy asoslangani haqidagi ilmiy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent B. Xoliqov rahbarligidagi 2021-2023-yillarga mo'ljallangan F3-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2021-2023-yillarga mo'ljallangan F3-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi umumlashma xulosalar bilan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqotning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilingan ishlar hamda tadqiqotning tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy nasrda yetimlik motivi va yetim bola obrazining genezisi”** deb nomlangan dastlabki bobi ikki fasldan iborat. Bobning *“Folklor va mumtoz adabiyotda yetimlik motivining islomiy asoslari”* nomli birinchi faslida epik tafakkur tarixida yetimlik mavzusi va motivining badiiy tadriji, uning yuzaga kelish omillari, diniy-ma'rifiy asosi Qur'oni karim oyatlari, hadislar, folklor hamda mumtoz adabiyot manbalariga tayanib poetik talqin qilingan.

Yozuvchi epik asarlarda obrazlar tizimi, ularning portreti, xarakteri, xatti-harakatlarini tasvirlab bayon qilarkan, shoir hamda dramaturgga qaraganda fikrlar tizimini erkin qo'yadi. Bunda uning iste'dodi, poetik mahorati muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, epik badiiy tafakkur tizimidagi har bir obraz hech shubhasiz, adabiy-tarixiy jarayon mahsuli ham hisoblanadi. M. Baxtinning “bironta fikr yangi ham emas, so'nggi bor aytilayotgani ham yo'q. U zanjirning halqasi, xolos, uni zanjirdan uzib olib o'rganib bo'lmaydi”⁵, – degan fikrlari yuqoridagi qarashlarga asos bo'ladi. Shu ma'noda, adabiyotda yetimlik mavzusining genezisi, yetim bola obrazining poetik takomili, uning diniy-ma'rifiy asoslari xususida fikr yuritish yangi o'zbek nasrida ushbu obrazning turfa xil talqinini kengroq yoritishga zamin yaratadi. Shu bois, mazkur faslda yetimlik mavzusi, yetim bola obrazining folklor va mumtoz adabiyot namunalariidagi poetik tadriji, uning Qur'oni karim oyatlari hamda hadislardagi bayoni haqida baholi-qudrat to'xtalishga jazm etildi. Umuman olganda, adabiyotda oshiq-ma'shuqa-raqib, telba, ayyor, masxara, xizmatkor, do'st, o'gay ota, o'gay ona, o'gay qiz, asrandi farzand, yetim bola obrazlarining poetik silsilasi mavjud. Bunday an'anaviy obrazlarning aksariyati muqaddas oila qo'rg'onidan sizib chiqib adabiyotga tarqagan. Aynan yetimlik mavzusi, yetim bola, asrandi farzand obrazi genezisida ham noto'kis oila o'tmishi yotadi. Ayniqsa, bu tipdagi obrazlar tizimi folklor asarlarida keng tarqalgan.

Sharq epik tafakkur tizimida yetim bola obrazini gavdalantirishda islom ma'rifati asos bo'ladi. “Baqara” surasining 83-oyati izohida “Yetim deb shariatda balog'at yoshiga yetmay otasi vafot etgan sag'ir va sag'iralarga aytiladi. Hadisi sharifda “Balog'at yoshidan so'ngra yetimlik yo'q” deyilgan”⁶. Qur'oni karim

⁵ Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 96.

⁶ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: Sano-standart, 2021. – В. 120.

suralarida keltirilgan ba'zi bir oyatlar, hadislar o'zbek badiiy nasrida yetimlik motivining poetik tasvirlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Sharq adabiyotida yetimlik motivining negizida islom ta'limoti yotadi, o'zbek xalqining yetimlarga bo'lgan samimiy, iliq munosabati akslantiriladi. Ko'rinadiki, islomda yetim bola va u bilan bog'liq turli masalalar atroflicha qamrab olingan. Bularni yetimning haqi, uning mol-mulkini to'g'ri sarf etish, unga nisbatan xushmuomala bo'lish, yetim bolani oq yuvib oq tarash, uyli-joyli qilish, ilm o'rgatish haqida dasturi amal deyish mumkin. Bunday boy meros hech shubhasiz, folklor asarlarida yetim bola obrazining shakllanishida katta ta'sir o'tkazgan. To'g'rirog'i, og'zaki ijodda yetim bola obrazi islom ma'rifati va xalq turmush-tarzi sintezining mahsuli sifatida aks ettiriladi.

Mumtoz adabiyotda esa yetimlik mavzusi Qur'oni karim oyatlari va hadislarida bayon qilingan axborotlarga asosan poetik talqin qilingan. Maqollarda xalqning yetim bola hayotiga doir kuzatuv, tajribasi, paremik kechinmasi va xulosasi aks etsa, ertaklarda yetim bolaning quvligi, topqirligi, boy tajribasi, unga butun tabiatning homiylik qilishi, xayoliy uydirma tafakkur mahsuli o'laroq gavalantiriladi. Yetimlikka munosabatning eng sodda va xalqona ko'rinishlarini folklorda uchramiz. Shunisi ahamiyatliki, yetimlar obrazi ertak, doston, xalq qo'shiqlari va maqollari kabi folklor janrlarida o'ziga xos o'rin tutgan hamda o'z mazmun-mohiyati bilan ma'lum ma'noda yetim bolalar uchun ma'naviy madad ham bo'lgan. Ayniqsa, epik tafakkur tizimida yetimlik asar syujetini harakatlantiruvchi motiv sifatida keng qo'llangan. Yetim qiz va yetim bola obrazining mushtarak jihatlari folklorda o'gay ona obrazi bilan o'zaro konflikt hosil qilishi hamda uddalab bo'lmas topshiriqlarni bajarishida ko'rinadi. Bunda bolalarga tabiat homiyliigi hamda sehr motivining roli muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Folklor va mumtoz adabiyotda epik qahramon ta'sirida yetimlikka sinov hamda taqdir ishi sifatida talqin qilish ko'zga tashlanadi. Qahramonning dunyoga kelishi, voyaga yetishi, ilm o'rganishi, ma'rifatli kishi rutbasini olishida yetimlik motivi energiya beruvchi maqomda turadi. Ilohiy kuchlar homiyligida yetim bola obrazi minimumdan maksimum nuqtaga yetganda haqiqiy alp bo'lib shakllanadi. Bu vazifani eposlarda borliq jismlari quyosh, oy, tog', daryo yoki turli jonivorlar bajarsa, mumtoz adabiyot namunalarida Yaratganning inoyati, marhamati va qudrati tufayli qahramon o'z maqsadiga yetadi. Yana bir mushtaraklik epos va "Xamsa" janrlari aro kuzatiladi. Ushbu asarlarda ko'pincha yetimlikning sabab va oqibatlariga e'tibor qaratilmaydi. Qahramonning qismati va taqdiriga bitilgan yozuv sifatida alplik tizimidagi bir motiv o'laroq ifoda etiladi. Asar qahramonining ma'nan yuksak shaxs bo'lib tarbiya topishida yetimlik turtki hisoblanadi. Agar "Go'ro'g'li" dostoni va Navoiyning "Xamsa"si tarkibidagi "Saddi Iskandariy" asari qahramoniga e'tibor berilsa, bu qahramonning taqdiridagi yetimlik keyinchalik ularning ma'nan yuksalishi uchun tayanch motiv vazifasini bajaradi.

"Go'ro'g'li" dostonida Go'ro'g'lining yoshligidagi beboshligi, sho'xligi, shumligi, g'ayrioddiy kuchga egaligi, yo'ldan chiqqanning dodini berishi, yoshligidayoq el ichida ovoza bo'lishi, odamlar nazari ko'p tushmaydigan joydan tasodifan topilishi, o'z yurtidan tashqarida ulg'ayishi kabi qator motivlar nafaqat, xalq eposlarida, mumtoz adabiyot namunalarida ham keng singib ketgan.

Avvalo, bunday analogik hodisa mohiyatida yetimlik motivi yetakchi sanaladi. Jumladan, islomiy asosni yoritishda yetimlik motivining taggenezisi ilk ko‘rinishi va poetik takomili Odam alayhissalomning yaratilishi, Muso alayhissalomning ulg‘ayishlari, Iso alayhissalomning tug‘ilishlari, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning bolaliklari muhim rol o‘ynaydi.

Bobning “*XX asr o‘zbek nasrida yetim bola obrazi muammosining ijtimoiy-psixologik omillari*” deb nomlangan ikkinchi faslida yangi o‘zbek nasrida yetim bola obrazini poetik talqin qilishda tarixiy-an‘anaviy, realistik tasvir, biografik, ijtimoiy va psixologik omillar yetakchilik qilishi tadqiq qilingan.

Mazkur mavzuning XX asr nasridagi badiiy tadriji, badiiy ko‘lami, ijtimoiy-psixologik asoslarini, shakl va tamoyillarini tasnifiy planda o‘rganish zamonaviy epik asarlarda yetim bola obrazi talqinlarini atroflicha tadqiq etishga imkon beradi.

XX asr o‘zbek nasrida yetim bola obrazining tasvirini yaratishda tarixiylik va an‘anaviylik tayanch omil sifatida ko‘zga tashlanadi. Yetimlik mavzusi va motivi folklor hamda mumtoz adabiyotdan XX asr o‘zbek nasrida transformatsiya mezonlari doirasida yangicha mohiyat kasb etgan. O‘zbek nasrida taraqqiy etgan hikoya, qissa va roman janrlarining tarixiy genezisi, nazariy asoslari ko‘p hollarda mumtoz adabiyot davrida pishib yetilgani hisobga olinsa, ushbu obraz tasviridagi tarixiylik va an‘anaviylik mohiyatan tabiiy ekanligi oydinlashadi. XX asr o‘zbek nasrida tarixiy va an‘anaviy yetim bola obrazini yaratishda quyidagilar muhim sanaladi: a) yetimlik etikasi, yetimlik mavzusiga munosabat, jamiyat tomonidan yetim bolaning qabul qilinishi, diniy-ma‘rifiy va islomiy asosga ko‘ra badiiy talqin qilinadi; b) XX asr nasrida yetim bola asar qahramoni sifatida markazga qo‘yilishi, epik tafakkur an‘anasiga monand badiiy ifoda etiladi. Shuningdek, XX asr nasrida yetim bolaning realistik tasviri yaratildi. Bunda jamiyatning ijtimoiy muammolari, shaxs fojiasi, davr muhitining realistik tasvir vositalariga tayanib aks ettirish tamoyili shakllandi. A. Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” va “Novvoy qiz” hikoyalarida yetim bola realistik tasvir mahsuli sifatida poetik talqin qilindi. Ikki hikoyada ham yetim bolaning noto‘kis, ammo kurashlarga to‘la hayoti aks ettirildi.

XX asr o‘zbek nasrida yetim bola obrazi muammosini tasvirlashda biografik omilning yetakchiligi ijodkor shaxsiyati, hayotiy faoliyatida muhim sanaladi. Ijodkorning yetimlikda ulg‘ayishi yoki yetim bolalar bilan yashagani mazkur mavzuni ichidan badiiy talqin qilishga imkon beradi. Ijodiy individuallik, boshdan kechirganlik, ijtimoiy qiyinchilik, ruhiy kemtiklik singari jihatlar yetim bola obrazini yaratishda biografik omil sifatida namoyon bo‘ldi. Misol uchun G‘. G‘ulomning adabiy merosi qator munaqqidlar tomonidan turli rakursda talqin qilingan. S. Meli o‘zining “O‘g‘rigina bola”ning izzati (yoxud mehr sehri)” maqolasida quyidagicha yozadi: “Mening o‘g‘rigina bolam”da hikoyachi ikkilangan: biri o‘n uch-o‘n to‘rt yashar bola, ikkinchisi shu bolaning oltmishdan oshgan pallasi. Asar “voqeiy” deb qo‘yilganini e‘tiborga olsak, har ikki hikoyachi muallifning o‘zi, ya‘ni G‘afur G‘ulom. Vaqt bekatlarida galma-gal paytda turgan hikoyachi – muallif”⁷.

⁷ Мели С. “Ўғригина бола” нинг иззати (ёхуд меҳр сеҳри). Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон Иқбол, 2011. – Б. 366.

XX asr adabiyotida ko‘plab adabiy-estetik hodisalar qatori yetim bola obrazi ham ijtimoiylashdi. Bunda yetimlikning sabab va oqibatlari, yetim bolaning boshidan kechirganlari, odamlarning yetim bolaga munosabati yo‘qchilik, bir burda nonga zor ota-onasiz qolgan bolalarning qismati badiiy talqin qilingan. A. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida yetimlikning sababi o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi. Yangi o‘zbek nasrida yetim bola obrazining ijtimoiylashuviga ikkita jahon urushining oqibati, shuningdek, ijtimoiy muhitning, siyosiy mafkuraning ta’siri katta bo‘ldi. Ayniqsa, nasriy asarlarda yetim bola obrazini poetik ifodalashda psixologik tasvir vositalaridan foydalanish kuchaydi. Yetim bola psixikasining hayotni idrok qilishdagi o‘ziga xosligi, yetimlikning bola ruhiyatida qoldirgan izi, taqdiridan alamzada, bebosh va qasoskor bola dunyosi badiiy talqin qilindi. Ota-onaning ajrimi va nikohsiz tug‘ilgandan so‘ng, tashlab ketilgan bola ruhiyatidagi ziddiyat, ma’yuslik, isyonkorlik badiiy asarlarda o‘z ifodasini topdi. Yetim bola obrazi ham bola, ham yetimlik ruhini o‘zida mujassamlashtirgan universal obrazdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jadid va sho‘ro nasrida yetim bola obrazi”** deb nomlanadi. *“Hamza, Qodiriy va Cho‘lpon nasrida yetimlik motivining ijtimoiy, milliy talqinlari”* mavzusidagi birinchi faslida jadid adabiyotida Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, Hamza ijodida yetimlik mavzusining diniy-ma’rifiy, ijtimoiy, milliy ifodasi o‘rganilgan.

Ma’lumki, jadidchilik ijtimoiy va milliy harakat sifatida adabiyotga shiddat bilan kirib keldi. Shunga muvofiq, adabiy tur va janrlarning yangilanishi, badiiy asar hamda uning motiv, detal, obraz, syujet kabi komponentlari ijtimoiy ma’no kasb etdi. Xalqning hayoti, turmush-tarzi, erki kuylana boshlandi. Bundan tashqari, jadidlar millatning o‘zligini anglash, ijtimoiy-siyosiy hayot, fan, maorif, san’at, til, madaniyat sohalarida ko‘pgina yangiliklar olib kirdi. Hamzaning “Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi” dramasida davr ijtimoiy ruhi aks ettiriladi. Drama qahramoni Cho‘pon tilidan “Yetim og‘zi oshga yetsa, burni qonar” maqoli keltiriladi. “Muallif, qahramon yoki asar umumkonsepsiyasini hikmatomuz, qisqa va lo‘nda ifodalashda maqolning o‘rni beqiyos”⁸. Xalqimiz maqolda yetimlarning og‘zi tegay deb turgan oshni ham yeyishga hadigi borligini, oldidagi oshni yeguncha necha bor minnat va tanbeh eshitishi mumkinligini nazarda tutadi. Jadid ijodkorlarining asarlarida yetim bola obraziga badiiy konseptual vazifa yuklash orqali dunyoviy ilm-ma’rifat va kasb-hunar o‘rganish g‘oyasi ilgari suriladi. Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarida ham yetim bola obrazi tasvirlangan. Romanda keltirilgan “Baxt va baxtsizlik”⁹ bobida usta Alim hikoyatida Saodat va usta Alimning yetimlikda o‘sganligi tilga olingan. Saodat va usta Alim obrazini tasvirlash orqali Qodiriy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarini ham tasvirlaydi.

Asarda Saodatning otasi Sharif miltiqchi va yetti yoshga yetgan akasi Qayumjonlarning o‘limi haqidagi tasvirlar keltiriladi. Saodatning akasi qizamiqdan o‘lgani ham aytiladi, ya’ni bu davrda Qodiriy tomonidan yaratilgan “Mehrobdan

⁸ Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – Б. 48.

⁹ Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B. 27.

chayon” romanida ham aynan shunday syujet takrorlanadi. Salim bo‘yoqchi bobosir va uning ikki bolasi: bir bolasi o‘pkasidan sovuq tegdirib, yana biri esa qizamiqdan vafot etishi tasvirlari keltiriladi. Demak, Qodiriy roman yaratilgan davr va ijtimoiy muhit tasvirida yetim bola obrazini bejizga kiritmaydi. Boisi, aynan ana shu davrda real hayotda bugungi kunda davosi mavjud bo‘lgan oddiy kasallikdan katta yoshlilar ham, yosh bolalarning ham o‘limi ko‘p uchraydi, natijada otasiz yoki onasiz yetim bolalar soni ham ortib boradi. Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasida yetimlik motivi – asosiy markazda turadi. Jadidlar millatni ma’rifatga yetaklovchi asarlarida Turkistonni uyg‘otuvchi, madaniyatni ulug‘lovchi obrazga ehtiyoj sezadi. Jadidlar o‘z asarlarida ilmsizlik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatgan bo‘lsa, Cho‘lpon hikoyalarida ota-onasidan ayrilgan yetim bola obrazi orqali Turkiston o‘lkasining kelajagini ko‘radi. Millatning birligi kambag‘al yetim bolaga qilgan marhamatidir. Jadid ijodkorlari asarlaridagi yetimlar obrazi boylarning zulmiga qarshi bo‘lgan. Cho‘lpon kambag‘al, hech kimi yo‘q, ilm olishga ehtiyoji bor bolani chet elda o‘qishi va xalqiga nafi tegadigan inson bo‘lishi uchun ulkan qiyinchilik va to‘siqlar bilan ilmi, ziyoli darajasigacha olib chiqadi. Xullas, jadid adabiyotida yetim bola obrazining ideal qiyofasi Hamza, Qodiriy va Cho‘lpon nasrida kuzatiladi hamda yetim bola obrazining badiiy qiyofasi mehnatkashlik, tirishqoqlik, kurashuvchanlik, ilm-ma’rifatli bo‘lishga intilish kabi fazilatlarni o‘zida aks ettiradi.

“*Sho‘ro davri o‘zbek adabiyotida yetim bola obrazi*” deb nomlangan ikkinchi faslda G‘. G‘ulom, X. To‘xtaboyev, T. Malik kabi ijodkorlarning asarlari tahlilga tortilgan. “Shum bola” qissasida Shum bola otasi yo‘q, onasi qaramog‘ida qolgan yetim bola sifatida tasvirlanadi. Umuman olganda, yetimlik mavzusi, yetim bola obrazi G‘. G‘ulom ijodi mohiyatini tashkil etadi. Yetimlik muammolari qiyin vaziyatlar, favqulodda hodisalar fonida poetik ifoda etiladi. Yetim bolalar taqdiriga befarq bo‘lmagan, o‘zi ham yetimlikni boshidan kechirgan adiblardan yana biri X. To‘xtaboyevdir. Uning “Besh bolali yigitcha” romanida otasi urushga ketgan Orifjonning ukalarini ham, ro‘zg‘orni eplab o‘tirishi ham unga taqdir tomonidan ko‘p ko‘rildi. Onasini to‘satdan traktor bosib qolib, bolalar yetim bo‘lib qolishdi. Romanda urushdan minglab chaqirim olisda bo‘lsa ham urushning sovuq nafasi sabab yetim bo‘lib qolayotgan bolalarning taqdiri qalamga olinadi. Boshiga yetimlik tushgan bolalarning erta ulg‘ayishi, kattalardek fikrlashi, hayot tashvishlariga uralashib bolaligini yo‘qotishi, mehnatkash, tirishqoq Orifjon obrazi orqali tasvirlanadi.

Tohir Malikning aksariyat asarlari markazida bolalikda jamiyat, insonlar nazaridan chetda qolib ketgan, bevosita jinoyatchilikka aralashib qolgan yetim bolalar obrazi tasvirlanishini inobatga olsak, yozuvchi shaxsining ana shu mavzuga yaqinligini kuzatish mumkin. “...Avval aytilganidek, asarda tasvirlanayotgan voqea va obrazlar talqinidan tortib, undagi eng kichik elementgacha – hammasi qaysidir darajada asarni bitgan zot, ijodkor haqida axborot beradi”¹⁰. Bunda muallifning o‘ziga xosligi, yozish uslubi kuzatiladi. “Alvido... bolalik” qissasida Qamariddin obrazi orqali yozuvchi “ichidagi fikr”larini tashqariga chiqarishga erisha olgan.

¹⁰ Мели. С. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 89.

Yozuvchining dardini badiiy obraz akslantirib turganini, Qamariddinning xatti-harakatlari ayon qiladi. Qamariddin obrazida jamiyatdagi insonlarning yetimlarga beshafqatligi tasvirlanadi, yetimlarda esa odamlardan norozilik kayfiyati kuzatiladi. “Shaytanat” asarida Asadbekda ham mazkur ruhiy holat hukmron. U ham otasining dushmanlariga bolaligining qurboni sifatida qaraydi, ulardan o‘ch olish istagi bilan ulg‘ayadi. Asadbek, Mahmud, Haydar, Zelixon obrazlarining jinoyat ko‘chasiga kirib qolishida to‘kis oilada ulg‘aymagani, yetimlikda o‘sgani sabab bo‘ladi. Asarda Zelixon obrazi chechen millatiga mansub bo‘lib, u ham olti yoshligida yetim bo‘lib qoladi. Otasi urushda halok bo‘ladi, bola fashistlardan o‘ch olishni ko‘ngliga tugib qo‘yadi. Otasining o‘limida fashistlarni ayblaydi. Otasidan ayrilgach, uch kun o‘tib onasidan ayriladi, uch yildan so‘ng bobosi ham omonatini topshiradi, to‘qqiz yoshli bola yolg‘iz yetim bo‘lib qoladi. Bobosining vasiyatiga o‘zbeklar bizlar kabi xo‘rlangan, ularga yordam ber degan o‘gitiga amal qilib yashaydi. Ammo Elchinga yordam beray desa, u o‘zbek, u qarshi kurashayotganlar ham o‘zbek. Zelixonning o‘zi tanimagan, bilmagan odamlardan o‘ch olish istagi bilan ulg‘ayishi, uni noto‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. U na oila, na xotin, na farzand qilishga qiziqadi. Ortiqcha mol-dunyo to‘plashni ham orzu qilmaydi. Faqat bugunini ko‘rib yashashga odatlanadi. O‘g‘irlik yo‘liga kirib qoladi. Ota-onasi o‘z ajali bilan o‘lmagani, yo‘qotilgan bolalik yillari sababli bola alamzada, o‘ch olish istagi bilan ulg‘ayadi. Bu o‘rinda asar qahramonlarining hayotida yetimlik tayanch motiv funksiyasini bajaradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“90-yillardan keyingi o‘zbek nasri namunalarida yetimlik motivi”** deb nomlanib ikki faslni o‘z ichiga oladi. *“Milliy istiqlol nasrida yetimlik motivining poetik ifodasi”* faslida XX asrning so‘nggi choragida mustaqillikning qo‘lga kiritilishi zamonaviy o‘zbek nasrining o‘ziga xos xususiyatlarini yuzaga kelishida muhim omil sanalishi, uning yetim bola obrazini poetik talqin qilishda muhim rol o‘ynaganiga e‘tibor qaratildi. Sh. Xolmirzayev, O‘. Hoshimov, N. Norqobilov, A. Yo‘ldosh, Q. Norqobil, L. Bo‘rixon singari yozuvchilarning badiiy asarlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ijod harakatdagi jarayon, davr o‘tishi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida adabiyotda umumbashariy motivlar novatorlik mezonini doirasida yangilandi. Shunga muvofiq, yetimlik obrazi va motivi ham istiqlol davri nasrida qator o‘zgarishlarga yuz tutdi. Bundan tashqari mustaqillik ne‘mati o‘laroq, yetim bolalarga doir qaror va dasturlar qabul qilindi. Bunday qaror, dasturlar mohiyatida dono xalqimizning yetim bolaga munosabati, mehribonchiligi, milliy qadriyatlari, bolajonligi aks etdi. Xalqimizning “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, – degan purma’no xulosasi o‘z tasdig‘ini topdi. Odamlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotida yetim bolalarga nisbatan qarashlari o‘zgardi. O‘z navbatida, bunday o‘zgarishlar xalqimizning epik tafakkuri mahsuli o‘laroq, nasriy asarlarda namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, mustaqillik davri o‘zbek nasrida yetimlik mavzusi muayyan obraz taqdirini ko‘rsatish orqali emas, undan motiv sifatida foydalanish kuchaydi. Sho‘ro nasrida yetim bola bosh obraz sifatida asar markazida tasvirlangan bo‘lsa, mustaqillik davrida yaratilgan asarlarda badiiy motiv o‘laroq asar syujetini qurishda poetik vazifa bajaradi. Bundan tashqari, mazkur davrda yetimlik mavzusini yoritishda quyidagi omillar yetakchilik qildi:

1. Yetimlik mavzusini tarixiy xotira va kundaliklar kontekstida badiiy talqin qilish.
2. Yetimlikning sabab va oqibatlarini badiiy taftish qilish, poetik idrok etish.
3. Yetimlik motivi orqali inson botinini yoritish, uning ruhiy olamini poetik ifodalash.
4. Inson sabri va bardoshini yetimlik motivi orqali badiiy tasvirlash.
5. Yolg'iz odam taqdiri va qismatini yetimlik motiviga tayanib yoritish.
6. Yetim bolaning yo'qotish hissi va sog'inch iztiroblarini ifodalash.
7. Bebosh qarovsiz bezori yetim bola fojiasini tasvirlash.
8. Otasidan erta judo bo'lgan, oila yukini o'z yelkasiga olgan gul yetimlarning ulg'ayish daqiqalarini ko'rsatish shular jumlasidandir.

Milliy istiqlol adabiyotida O'. Hoshimov, L. Bo'rixon, A. Yo'ldosh, Q. Norqobil kabi ijodkorlarning asarlarida yetimlik motivi bilan bog'liq tasvirlar uchraydi. Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy nasrda ham yetimlik motivi Birinchi va Ikkinchi jahon urushi muammolari doirasida badiiy talqin qilinadi.

Mustaqillik davri o'zbek nasrida hikoya yetimlik mavzusi va motivining turli-tuman qirralarini badiiy aks ettirgan eng faol janr sifatida ko'zga tashlanadi. Bu borada Mirmuhsinning "Ona qabriga gul", Sh. Xolmirzayevning "To'p o'yini", N. Norqobilovning "Yangi ertak", "Chetdagi odam", "Erkak", N. Jaloliddinning "Erkagi bor uy", A. Yo'ldoshning "Yetim so'z" hikoyalari o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, "Yangi ertak" hikoyasida o'gay ona va qizcha munosabatiga yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish kuzatiladi. "Zumrad va Qimmat" ertagi hikoya voqeasiga zid qo'yiladi. Xolaning kelishi kutilayotgan o'gay ona haqidagi aytgan gaplari qizchanning murg'ak qalbida qo'rquv paydo qiladi: "Aslida qizchanning ko'ngliga "o'gay ona" qo'rquvini solgan o'sha Xolbuvi xolasi edi"¹¹. O'gay onaning o'gay qizga munosabati xalq ertaklarida o'zaro ziddiyat orqali tasvirlanishi an'anaga aylanib qolgan. Zamonaviy adabiyotga nazar tashlasak, bu holatga noan'anaviy yondashuv ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, N. Norqobilovning "Yangi ertak" hikoyasida o'gay ona bilan o'gay qiz munosabatiga yangicha, noodatiy poetik tasvirlar kuzatiladi. Hikoyada o'gay ona obrazining yangicha talqini yetim qizchanning ertagi orqali badiiy ifoda etiladi. Kutilmagan mehr-shafqat yetim qizcha hayotini tubdan o'zgartiradi. Dissertatsiyada ushbu masalalar tizimli tahliliy ifodasini topgan.

Bobning "*Yetim bola obrazining modernistik, postmodernistik asarlardagi talqini*" deb nomlangan ikkinchi faslida yetimlik motivi va yetim bola obrazi mustaqillik davri o'zbek nasrida yuz bergan shakliy izlanishlar mahsuli o'laroq poetik talqin etilgan.

Ma'lumki, istiqlol davri o'zbek adabiyotida an'anaviy asarlar bilan bir qatorda yangilanish ehtiyoji o'laroq, modern nasr namunalari ham vujudga keldi. Motiv, detal, obraz va xronotop badiiy uslubdagi shakliy izlanishlar, mustaqillik davri adabiyotida modernistik asarlarning o'ziga xos jihatlarini belgilashda hal qiluvchi mohiyat kasb etdi. Adabiy jarayonda esa bunday tipdagi asarlarni adabiyotshunoslar turli aspektda o'rgandilar. Ozod Sharafiddinov, Umarali

¹¹ Норқобилов Н. Янги эртақ. Ҳикоя / Ижод олами. 1-сон. – Тошкент, 2017. – Б. 26.

Normatov, Tilavoldi Jo'rayev, Ulug'bek Hamdam modernizm adabiyoti o'ta murakkab hodisa ekanligi, uni jo'n tushunmaslik kerakligi, inson botinining eng tubiga qadar kirib borishi, tasvir yo'sini, personajlarning dunyoqarashi bilan ijod jarayonidagi erkinlik hamda inkor konsepsiyasini talqin qilishi haqida to'lib, jo'shib fikr yuritadilar. Adabiyotshunos olim U. Jo'raqulovning ilmiy tadqiqotlarida modernizm adabiyotida matnning ikkita shakli xususida so'z boradi. Ular o'rtasidagi nozik farqni anglamaslik o'quvchini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yishi hech gap emas. Buning **birinchi ko'rinishi** bevosita mantiqdan xoli, ma'nisiz, betartib harakat va so'z tizmalarida namoyon bo'lsa, **ikkinchi ko'rinishi** zohiriy tartib, shakl va mazmundorlikda ifoda etilgan xaotik talqinda yuz ko'rsatadi"¹².

